

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

THE CONCEPTUAL ANALYSIS OF PROVERBS WITH AN ANTHROPONYMIC COMPONENT IN THE UZBEK LANGUAGE

Umarjon Goyibov*PhD student, Uzbekistan state world languages university*umar.goyibov@mail.ru*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: anthroponymic component, proverb, conceptosphere, conceptual system, associative meaning, encyclopaedic information.

Received: 21.09.25**Accepted:** 22.09.25**Published:** 23.09.25

Abstract: Proverbs are aphorisms that reflect people's long-life experience, wisdom, undergoing and attitude towards certain events as well as judgements in a literary, figurative and descriptive way. For example, Aytilgan so'z – otilgan o'q, Ko'pda Xizr bor, Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik. Humans' characteristic features, outstanding behaviour or memorable attributes connected with them are directly embodied in Uzbek proverbs with personal names. From this viewpoint, anthroponyms in the component of Uzbek proverbs have significant importance with regard to imparting encyclopaedic information about certain people, on the basis of whose peculiarities certain concepts can be formed. In this article, the conceptual analysis of Uzbek proverbs with an anthroponymic component is discussed and reacted from cognitive viewpoint.

O'ZBEK TILIDA ANTROPONIM ISHTIROK ETGAN MAQOLLARNING KONSEPT TAHLILI

Umarjon G'oyibov*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti*umar.goyibov@mail.ru*Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: antroponimik komponent, maqol, konseptosfera, konseptual tizim, assotsiativ ma'no, ensiklopedik axborot.

Annotatsiya: Maqollar o'zida xalqning uzoq yillik hayotiy tajribasini, donishmandligini, ko'rgan-kechirganlarini, muayyan voqea-hodisalarga bo'lgan

munosabatini, xulosa-hukmlarini badiiy, obrazli va tasviriy yo'sinda aks ettiruvchi hikmatli so'zlardir. Misol tariqasida Aytilgan so'z – otilgan o'q, Ko'pda Xizr bor, Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik kabilarni kiritishimiz mumkin. Kishi ismlari ishtirok etgan o'zbek maqollarida mazkur kishilarning xarakterli jihatlari, ko'zga ko'ringan xatti-harakatlari yoxud ular bilan chambarchas bog'langan esda qolarli atributlari bevosita aks etadi. Shu nuqtayi nazardan o'zbek maqollari tarkibida antroponimlar muayyan kishilar to'g'risida qomusiy axborot yetkazuvchi ahamiyatga ega bo'lib, mazkur antroponimlarga xos xususiyatlar asosida muayyan konseptlar shakllanishi mumkin. Mazkur maqolada esa antroponimlar ishtirok etgan o'zbek maqollarining konsept tahlili haqida so'z yuritilib, ularga kognitiv nuqtayi nazardan munosabat bildiriladi.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОСЛОВИЦ С АНТРОПОНИМИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Умаржон Гойибов

Базовый докторант

Узбекский государственный университет мировых языков

umar.goyibov@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые антропонимический пословица, концептуальная система, ассоциативное значение, энциклопедическая информация.	слова: компонент, концептосфера, значение, энциклопедическая информация.	Аннотация: Пословицы - это афоризмы, которые в литературной, образной и описательной форме отражают многолетний жизненный опыт, мудрость, переживания и отношение людей к определенным событиям, а также суждения. Например, Aytilgan so'z – otilgan o'q, Ko'pda Xizr bor, Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik. Характерные черты человека, выдающееся поведение или связанные с ними запоминающиеся атрибуты непосредственно воплощены в узбекских пословицах с личными именами. С этой точки зрения антропонимы в составе узбекских пословиц имеют существенное значение с точки зрения передачи энциклопедической информации об определенных людях, на основе особенностей которых могут быть сформированы определенные понятия. В данной статье рассматривается
---	--	---

Kirish. Ma'lumki, maqollar xalqning to'plangan boy tajribasini, hayotiy kechinmalarini, saboqli o'tmishini ixcham va lo'nda ifoda etishi bilan birgalikda o'zining xarakterli xususiyati bilan tarixda bevosita o'chmas iz qoldirgan muayyan kishilarni mujassamlashtiradi. Tarkibida antroponim ishtirok etgan o'zbek maqollari ham shular jumlasidan bo'lib, zamonaviy tilshunoslikda mazkur antroponimlarga tegishli xususiyatlar asosida kishi ongida mazkur xususiyatlarga ega bo'lgan kishilarning umumiy obrazini tipiklashtiradi. Bundan tashqari, kognitiv nuqtayi nazardan o'zbek maqollarining tarkibida ishtirok etgan antroponimlar kishining yurish-turishi, faoliyati, fe'l-atvori, xatti-harakati to'g'risidagi muayyan konseptosferani hosil qilishda salmoqli hissa qo'shadi.

Metodlar. O'zbek tilida maqollar tarkibidagi antroponimlarning kelib chiqish shart-sharoitlarini va manbalarini tavsiflash maqsadida etimologik tahlil qo'llaniladi. Bunda maqollar tarkibidagi antroponimlar asosan tarixiy voqea-hodisalar, diniy rivoyatlar, badiiy asar namunalari va xalq og'zaki ijodi durdonalari hamda o'zbek xalqida tez-tez uchraydigan ismlardan kelib chiqqanligi aniqlandi.

Mazkur maqollarning ma'naviy xususiyatlarini tavsiflash maqsadida semantik tahlildan unumli foydalaniladi. Mazkur tahlil vositasida nafaqat ularning mazmuni, balki mazkur semantik xususiyatlar maqollar tarkibidagi antroponimlar bilan bevosita yoxud bilvosita assotsiatsiyaga kirishganligi ham voqelanadi.

Mazkur maqollar o'z tarkibidagi antroponimlar bilan bog'liq ensiklopedik axborot vositasida qanday konseptlarni hosil qilishini aniqlash maqsadida tilshunoslikning kognitiv yo'nalishidagi tadqiqot metodlaridan biri sanalmish konsept tahlili yordamida aniqlanadi.

Natijalar. N.V. Kiriuxinaning ta'kidlashicha, borliq to'g'risidagi hayotiy kuzatishlar, uni nomlash, tavsiflash, baholash, u haqida to'plangan bilim va tajribalarni o'z ichiga olgan maqollar muayyan xalqning turmush tarzi hamda muayyan lingvistik jamiyatda o'rnashgan baholash tizimi haqida qimmatli ma'lumot beruvchi xazina hisoblanadi [Kiriukhina, 2022]. Maqol hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihatlar mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli va hikmatli ibora yoki gap hisoblanadi.

G.Pariz hamda R.Ramezani kabi ilmiy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, maqollar muayyan xalqning amaliy tajribasiga asoslangan umumiy haqiqatni ifodalovchi qisqa va lo'nda gap yoki jumlaning anglatadiki, nutq jarayonida va xalq og'zaki ijodida tez-tez qo'llanilishi tufayli ularning ma'nosini sharhlash zaruriyatini tug'dirmaydi, ammo ba'zi bir maqollar borki, ularni sharhlash so'zlovchining dunyoqarashi, yashagan zamoni va makoni bilan bog'liq holda amalga oshirish

lozim [Pariz & Ramezani, 2021]. Bu esa, o'z navbatida, mazkur so'zlovchining mental faoliyatini namoyon qilib, o'zi yashayotgan jamiyatning madaniy, ijtimoiy va mental tuzilishini o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Ch.Siminning ilmiy xulosasiga ko'ra, maqollar kognitiv nuqtayi nazardan muayyan konseptlarni tilda verballashtirishda hamda maqollar vositasida shakllangan konsept strukturasini modellashtirishda ahamiyatga molik lisoniy birliklardan biri hisoblanadi [Simin, 2022]. Darhaqiqat, kishi ongida shakllangan borliq to'g'risidagi muayyan konsept tilda o'z aksini to'laqonli topishida maqollar salmoqli o'rinni egallaydi. Mazkur konsept, o'z navbatida, tashqi dunyodan, tashqi ta'sirdan xoli holda shakllanmaydi, balki muayyan xalq tarixi, adabiyoti, dini, geografiyasi, urf-odatlar, hayvonot va o'simlik dunyosi singari qomusiy axborot hamda kishining borliqni anglashi natijasida paydo bo'lgan bilim doirasi bilan chambarchas bog'langan holda yuzaga keladi. Ayniqsa, maqollar tarkibida ishtirok etgan antroponimlar bu borada o'z o'rniga ega, chunki ular nafaqat maqollar tarkibida kelib kishi ongida mazkur antroponimlar bilan bog'liq ensiklopedik axborotni faollashtiradi, balki ularga xos xususiyatlarga ega bo'lgan kishilarning umumiy obrazini mujassamlashtiradi. Masalan, tarixiy voqea-hodisalar bilan bog'liq o'zbek tilidagi Mahmudning qadami yetgan yerda o't o'smas maqoli bilan kishining olam haqidagi konseptual manzarasida ashaddiy qonxo'r, zolim va bosqinchi Mahmud G'aznaviy gavdalanadi. Tarixiy adabiyotlarda qayd etilishicha, u 11-asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlarini qon qaqshatgan va o'z harbiy harakatlari bilan el-yurtga qirg'inbarot keltirgan. Uning ushbu salbiy fazilatlarini inobatga olinib bugungi kunda ushbu maqol kishi ongida kimki qahr-g'azabini hadeb sochaversa yaxshilik va baraka keltirmasligini bildiruvchi konsept shakllantiradi.

Muhokama. O'zbek tilidagi Sog' odamga Suqrotning ham keragi yo'q maqoli doim jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadigan va sog'lom hayot kechiradigan kishi kasallikka hech qachon yo'liqmaydi, unga tabibning ham keragi yo'q degan mazmunni bildiradi. Uning tarkibida qo'llanilgan Suqrot qadimgi yunon faylasufi bo'lib, sog'lom fikrlash qobiliyatiga va atrof-muhitdagi voqelikka tanqidiy ruh bilan munosabat bildirish xislatiga ega bo'lgan. Uning bunday fazilati inobatga olinib, sog'lom fikrlovchi, tanqidiy nazar bilan munosabat bildiruvchi kishilarning umumiy obrazini mujassamlashtiradi hamda Sog'lik konseptini hosil qiladi:

- Partiya tashkiloti jonli, mustahkam bo'lsa, sog' kishiga Suqrotning nima keragi bo'lar edi? (Abdulla Qahhor).

Zamona oxir bo'lsa, echkinning otini Abdukarim qo'yadilar maqoli zamona buzilsa, yomon odamlar quturishini, yaxshi odamlarga pand berishini, ularni har qanday yo'llar bilan ezishga harakat qilishini anglatadi. Ushbu maqolning kelib chiqishi bir rivoyat bilan bog'liq. Unga ko'ra, Abdukarim degan qassob kishi bo'lib, u qo'y go'shtiga echki go'shtini aralashtirib kanoraga osib qo'yib, xaridorlarga echki go'shtini ham qo'y go'shti deb sotadi. Buni sezib qolgan odamlar

Abdulkarim qassobga “echki” degan laqabni qo‘yib, hamma joyda uning ustidan kulib, qarg‘aydi. Ushbu rivoyat inobatga olinib, Abdulkarim antroponimi ostida faqat o‘z manfaatini o‘ylab ish tutadigan, xalqqa quloq solmaydigan kishilarning umumiy obrazini mujassamlashtiradi hamda Munofiqlik konseptini hosil qiladi:

- Qo‘yning kosasini oqartirish ebida, ammo echkining oti Abdulkarim (Abdulla Qodiriy).

Berdisini aytguncha belimni bukma maqoli kishi gapni oxirigacha tinglamay turib, shoshma-shosharlik bilan hukm chiqaradigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu maqol tarkibida ishtirok etgan Berdi ismining to‘liq shakli Xudoyberdi bo‘lib, uning kelib chiqishi shoir Mashrabga nisbat berib aytiladigan bir latifaga bog‘liq. Unga ko‘ra, mullalar Mashrabdan ismini so‘raganida u “Xudoy...” deyishi bilan uni do‘pposlab qoziga olib boradi va uni kofirga chiqaradi. Uni so‘roq qilganlarida esa “Berdisini aytgunimcha o‘ldirmoqchi bo‘ldilar, mening ismim – Xudoyberdi” degan ekan. Mazkur latifa inobatga olinib, hozirgi kunda ushbu maqol biror gapni oxirigacha eshitishga sabri chidamaydigan, shoshib xulosa chiqaradigan kishilarning umumiy obrazini tipiklashtiradi hamda Sabrsizlik konseptini hosil qiladi:

- Berdisini aytguncha urib o‘ldirma, yapon olimlari bu oqish-sarg‘ish odamlarning tuki ham, har narsasi ham darmon bo‘lishini topgan (Boboxon Muhammad Sharif).

Bo‘ji keldi, bo‘ji keldi, Chingiz bilan Jo‘ji keldi maqoli yomon yo‘ldan qaytarib turadigan ota-onasi, yaqinlari o‘lib ketib, bebosh va betarbiya bo‘lib ketgan bolalarga qarata kinoyali tarzda ishlatiladi. Ushbu maqol tarkibida ishtirok etgan Jo‘ji bilan birgalikda Chingizxon kabi mo‘g‘ul istilochilarining askarlari ommani qirg‘inbarotdan o‘tkazgach mahalliy aholi yosh bolalarni qo‘rqitish uchun yuqoridagi maqol paydo bo‘lgan. Ularning dahshat bilan kelishi, nohaq qon to‘kishi, xalqni talashi va qul qilib ishlatishi inobatga olinib, Jo‘ji hamda Chingizxon nomlari Shafqatsizlik, Qo‘rqinch va Vahima konseptlari bilan assotsiativ ma‘noga ega:

- Bo‘ji keldi, bo‘ji keldi, Chingiz bilan Jo‘ji keldi. Bir esnab on ko‘ray-chi, Bazo‘r kimning kuchi keldi? (Maqsud Shayxzoda).

Ko‘pda Xizr bor maqoli kishi ko‘pchilikka qo‘shilib, ular bilan hamkorlikda ishlasa, baxtini ko‘pchilik orasidan topishini anglatadi. Ushbu maqolning kelib chiqishi, bir diniy rivoyat bilan bog‘liq. Unga ko‘ra, Xizr payg‘ambar obi-hayot suvini ichgan bo‘lib, qiyomatgacha hayot kechirishi, odamlar orasida ko‘zga ko‘rinmay yurishi, vaqti-vaqti bilan turli qiyofalarga kirib, butun jahonni kezishi, falokatga yo‘liqqanlarni halokatdan qutqarishi, kimki uni uchratib qolsa, baxtli va boy bo‘lishi, shuning uchun o‘tmishda e‘tiqodchilar uni ko‘rish niyatida xayr-ehsonlar, ibodatlar qilib yurishi hikoya qilinadi. Ushbu rivoyat inobatga olinib, hozirgi kunda mazkur maqol ko‘pchilikning manfaatini ko‘zlab ish tutadigan, ular bilan hamkorlikda muayyan ishni amalga oshiradigan va ko‘pchilikning maslahatiga quloq solib ish tutadigan kishilarning umumiy obrazini

mujassamlashtiradi hamda Baxt-saodat, Birdamlik, Hamkorlik konseptlari bilan assotsiatsiyaga kirishadi:

- Ko‘pda Xizr bor degan gap – gap. Marjon aftoda, abgor bo‘lib otasinikiga borgandan so‘ng sovchi degani yopirilib kela boshladi (To‘ra Sulaymon).

Borida Hotam - yo‘g‘ida motam maqoli borida bisotini tejamay sarflab, tez kunda tugallaydigan va buning oqibatida noiloj bo‘lib qoladigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Biroq uning salbiy konnotatsiyasiga qaramay, o‘z tarkibida ishtirok etgan Hotam antroponimi bevosita Sharq mamlakatlarida saxiyligi va oliyjanoblighi bilan dong taratgan shaxs hisoblanib, Sharq xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotlarda u haqida ko‘plab afsona va rivoyatlar yaratilgan. Uning mazkur fazilati inobatga olinib, hozirgi kunda ushbu maqol tarkibidagi antroponim kishi ongida hech kimdan narsasini ayamaydigan, qo‘li ochiq inson assotsiativ ma‘nosini faollashtiradi va Saxovat konseptini hosil qiladi:

- Shu bir shirin sado bilan Lutf etdingiz Hotam sifat, Poyiga tillo to‘kdingiz, Go‘yo gado kelgan kuni (Habib Sa’dulla).

So‘zning Luqmon tilidan aytilgani – xo‘b maqoli donishmand hakim tilidan aytilgan go‘zal so‘zning ta’siri dardga yo‘liqqan bemorlar uchun shifo bo‘lur degan mazmunni bildiradi. Uning tarkibidagi Luqmon antroponimi Luqmoni hakim ismli Sharq mumtoz adabiyoti va xalq og‘zaki poetik ijodidagi donishmand tabib sanalib, u ko‘plab bemorlarga go‘zal nasihatlar qilganligi bizga adabiyot durdonalaridan ma’lum. Uning mazkur fazilati inobatga olinib, hozirgi kunda ushbu maqol tarkibidagi antroponim ko‘plab dardga yo‘liqqan bemorlar uchun shifo baxsh etuvchi tabiblarning umumiy obrazini mujassamlashtiradi hamda Shifo konseptini hosil qiladi:

- Mening qo‘lim emas, Luqmoni hakimdan qolgan malhamki, ta’sir qilmagandan so‘ng tabiblar nima qila olar edi (Mirmuhsin).

Ayamajuz – olti kun, qahr aylasa qattiq kun maqoli izg‘irinlar tugab, o‘lkaga bahor kirib kelishi bilan bog‘liq mart oyining ilk kunlaridagi sovuq harorat, bundan tashqari inson boshidan og‘ir kunlarni o‘tkazgan bo‘lsa, biroz sabr qilishi maqsadga muvofiq ekanligini nazarda tutadi. Ko‘rinib turibdiki, mazkur maqolda qiyinchilik, izg‘irin singari salbiy konnotatsiya kuzatiladi:

- Darvoqe, “Ayamajuz olti kun, sakrab kelsa sakkiz kun, to‘qrab kelsa, to‘qqiz kun...” Bu bahordagi o‘zgaruvchan ob-havoga o‘ziga xos ta’rifdir... Sovuq, ayozli, bo‘ronli kunlarni ertaklardagi qahr otiga mingan, badjahl kampir qiyofasiga mengzab, ayamajuz momo deb atay boshlagan (Ulug‘bek Jumayev).

Bundan tashqari, tarkibida tez-tez uchraydigan ismlar ishtirok etgan o‘zbek tilidagi maqollarda ko‘pincha kishining ijobiy fazilati va salbiy xislati haqidagi konnotatsiya aks etadi. Ular ijobiy va salbiy xarakterga ega bo‘lgan muayyan kishilarning umumiy obrazini tipiklashtiradi. Masalan, Aybni Ali qiladi, kaltakni Vali yeydi; Ali jinni, Ali jinnining bari jinni;

Ishni Ismat qiladi, lofni Toshmat uradi; Ishni qilar Masharif, mushtni yeydi Mirsharif; Ishni qilar Mahamadsharif, go'shtini yeb terib-terib singari maqollar tarkibida ishtirok etgan Ali, Ismat, Masharif, Mahamadsharif antroponimlari ko'pincha mug'ambir, hiylakor, nomard va yolg'onchi hamda janjalkash insonlarning, Vali, Toshmat, Mirsharif antroponimlari esa soddadil, beayb va rostgo'y insonlarning umumiy, tipik obrazlari sifatida kishi ongida konseptuallashadi.

Yuqoridagi maqollarning ma'no-mazmuni va etimologiyasidan anglashiladiki, ularning muayyan guruhi ijobiy konseptosferani, qolgan guruhi esa salbiy konseptosferani tashkil etadi. Bunday konseptosferaning shakllanishiga sabab ularning tarkibida ishtirok etgan antroponimlarning salbiy xislati, ijobiy fazilati, xatti-harakatlari hamda o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Mazkur konseptosferani quyidagi jadval orqali yaqqol ko'rishimiz mumkin:

Ijobiy konseptosfera	Konsept	O'zbek tilidagi kishi ismlari ishtirok etgan maqollar
	Birdamlik	<i>Ko'pda Xizr bor; Xalqqa suyanib ish qilgan odamni Aflotun ham yiqitilmaydi</i>
	Do'stlik	<i>Hasan aka quysin, Qo'chqor aka ichsin</i>
	Sog'lik	<i>Sog' odamga Suqrotning ham keragi yo'q</i>
	Sabr	<i>Omon bo'lsak ko'ramiz Halimaning holini</i>
	Shifo	<i>So'zning Luqmon tilidan aytilgani – xo'b</i>

1-jadval. Ijobiy konseptosferani hosil qiluvchi o'zbek tilidagi kishi ismlari ishtirok etgan maqollar

Salbiy konseptosfera	Konsept	O'zbek tilidagi kishi ismlari ishtirok etgan maqollar
	Javob	<i>Jabr qilma yetimga, uchragaysan Mustafoning o'qiga</i>
	Nafs	<i>Qizilni ko'rsa. Xizr ham yo'ldan ozadi</i>
	Jazo	<i>Aybni Ali qiladi, kaltakni Vali yeydi; Ishni qilar Masharif, mushtni yeydi Mirsharif; Mulla Mirashir qilmishiga yarashir</i>
	Vahima	<i>Bo'ji keldi, bo'ji keldi, Chingiz bilan Jo'ji keldi</i>
	Janjal	<i>Ali jinni, Ali jinnining bari jinni; Oti yomon – Oypora</i>
	Zulm	<i>Asfandiyor xon bo'ldi, og'zi-burnim qon bo'ldi; Mahmudning qadami yetgan yerda o't o'smas</i>
	Muammo	<i>Eshmat ketib, Toshmat keldi</i>
	Munofiqlik	<i>Zamona oxir bo'lsa, echkinining otini Abdukarim qo'yadilar</i>
	Farosatsizlik	<i>Hayronman Shoniyoyni ishiga, etik sotib paytava olib yurishiga</i>
	Omadsizlik	<i>Abdulkhakim ovga chiqdi, orqasidan g'avg'o chiqdi</i>
	Mug'ambirlik	<i>Otasini so'rasang – Ahmadi forig', onasini so'rasang – tovonni yoriq</i>
	Izg'irin	<i>Ayamajuz – olti kun, qahr aylasa qattiq kun</i>

2-jadval. Salbiy konseptosferani hosil qiluvchi o'zbek tilidagi kishi ismlari ishtirok etgan maqollar

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kognitiv nuqtayi nazardan o'zbek maqollarining tarkibida ishtirok etgan antroponimlar o'ziga xos xususiyatlari vositasida kishining yurish-turishi, fazilati, xatti-harakati, aqliy salohiyati to'g'risida muayyan konseptlarni shakllantirishi mumkin. Mazkur maqollarning ma'no-mazmuni va tarkibida ishtirok etgan antroponimlarning ijobiy fazilati va salbiy xislati hamda xatti-harakatlari vositasida ular ijobiy va salbiy konseptosferani hosil qilishi mumkinligi voqelanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdusamadov Z.N. Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari: filol. fanl. falsafa dokt. (PhD) diss. – Toshkent: O'zMU, 2022. – 132 b.
2. Anar / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi A.Tojiyev. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. – 440 b.
3. Jumayev U. Ayamajuz olti kun: maqola / "Oila va tabiat" gazetasi. 2020-yil 3-son. – 9 b.
4. Mirmuhsin. Asarlar: hikoyalar, qissalar. 4 jildlik. 4-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 196-281 b.
5. To'ra Sulaymon. Chimildiqqa kirgan chol: hikoya / "Tafakkur" jurnali. 2005-yil 1-son. – 36-53 b.
6. Ulviy A., Bekmuhammad U. Maqsud Shayxzoda va uning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi: publitsistik ocherklar, drama. – Urganch: Ogahiy NMIU, 2023. – 176 b.
7. O'zbek xalq maqollari / Turdimov Sh. tahr. – Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b.
8. O'zbek zamonaviy she'riyati antologiyasi / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Muhammad Siddiq Rahmatov. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. – 536 b.
9. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar mahzani. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 480 b.
10. Kiriukhina N.V. Dynamic Representation of a Female Gender Role as part a Part of a Woman's Image (on the Basis of English Proverbs and Anti-Proverbs) // Issues in Journalism, Education, Linguistics. – 2022. – №2. – 332 p.
11. Pariz G., Ramezani R. A Hermeneutic Analysis of Proverbs in Amali by Al-Sayyid Al-Murtada // Vestnik Kemerovskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2021. – №23(3). – 814 p.
12. Сыминь Чж. Концепт «Лицемерие» в русском провербиальном пространстве: лингвокогнитивный аспект // Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И.Я. Яковлева. – 2022. – №2(115). – с. 133.